

Date: 9th February-2025

YO'L HAKKATI XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH MASALALARI

Sariboyev Nurbek Vohidjonovich

Karimqulov Sherzodbek To'xtabek o'g'li

Yangiqo'rg'on tuman 2-son politexnikumi maxsus fan o'qituvchilari

Annotatsiya: Bugungi kunda butun dunyoda yo'l harakati xavfsizligi (YHX) sohasida juda ko'plab kamchiliklar hamda muammolar mavjud. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, inqiroz davrida, ayniqsa xavfli faoliyat sohaslarida, qo'llaniladigan boshqaruv usullari yaroqsiz deb tan olinadi hamda tub o'zgarishlarni ta'minlaydigan innovatsion usullar bilan almashtiriladi. Boshqaruvning yangi usullarini joriy etish bilan vazifalarni tezroq, osonroq va shuning uchun arzonroq va yaxshiroq hal qilish kerakdir. Ushbu maqolada yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash masalalari, bunda qonun - qoidalarning o'rni haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: qoida, avtomobil, yo'l-transport hodisalari, yo'l, hodisa, transport, haydovchi, avariya, harakat.

Ma'lumki, mamlakatni avtomobillashtirish darajasining ortishi, uning iqtisodiy va mudofaa quvvatini mustahkamlash bilan bir vaqtda, ko'pgina salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Bunday salbiy oqibatlarga avtomobillar sonining ortishi oqibatida avtomobil yo'llarida harakat miqdorining, transport oqimi zichligining va yo'llarning yuklanganlik darajasining ortishi, yo'llarda harakatlanish uchun haydovchiga qulaylikning yomonlashishi va oxir oqibatda

yo'l-transport hodisalari (YTH) miqdorining, ularda halok bo'layotgan va har xil tan jarohatini olayotgan odamlar sonining ortishiga, harakat tezligining kamayib ketishiga va boshqa shunga o'xshash ko'pgina salbiy oqibatlarga (shovqin, havodagi chiqindi gazlar konsentratsiyasi) olib keladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa iqtisodiy komissiyasining ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda dunyoda har yili 55 milliondan ortiq YTH sodir etilyapti va ularda 1,4 milliondan ortiq odam halok bo'lyapti, 10 milliondan ortiq odam esa har xil darajada tan jarohatlarini olyapti. Bulardan ko'rinib turibdiki, avtomobillashtirish darajasining ortishi harakat xavfsizligi muammosining murakkablashishiga, ayniqsa, haydovchilarni tayyorlashga qo'yilgan talablarning yanada yuqori bo'lishiga olib kelar ekan.

Yo'l harakati havfsizligini ta'minlashni nazariy o'rganish ob'ektlari qatorida

“yo'l harakati xavfsizligi” tushunchasini o'rganish markaziy o'rinni egallaydi. “Yo'l harakati xavfsizligi” tushunchasining turli xil ta'riflari borligiga uning mazmunida bo'ladigan doimiy o'zgarishlar bilan izohlanadi. Bu har qanday hodisaning tabiiy holatidir. Yo'l harakati xavfsizligining mazmuni davlat rivojlanishining o'ziga xos tarixiy shart-sharoitlari, uning nazariy tushunchasi va qonunchilikni tartibga solish holati bilan ham belgilanadi.



Date: 9th February-2025

Yo'l harakati qatnashchilari yo'llarda harakatlanish jarayonida muntazam ravishda o'zaro munosabatlarga kirishib boradilar. Ayrim hollarda bunday munosabatlarda Davlat yo'l harakati xavfsizligi xodimlari ham ishtirok etadilar. Afsuski, bunday munosabatlar hamisha ham yo'l harakati ishtirokchilari uchun ijobiy natija bermaydi. Yo'l-patrul xizmati xodimi tomonidan yo'l harakati qoidalarini buzganlik uchun ma'muriy jazo choralarini qo'llanishini ko'pgina yo'l harakati qoidalarini buzuvchilari to'g'ri talqin qilmaydilar. Buning sababi yo'llarda harakatlanish qoidalariga rioya etilishi ustidan qat'iy nazorat olib borilmasa, yo'l-transport xodimalari sodir bo'lish ehtimolligini yanada oshishi mumkinligini ular to'g'ri tushinib yetmaslikdandir. Ayniqsa, bugungi kunda bu masala yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashda barcha yo'l harakati qatnashchilarining intizomiy xatti-harakatlarini ta'minlovchi yo'l harakati normalari va qoidalarini buzganlik uchun ma'muriy majburlov chorasi, intizomiy, fuqaroviy va jinoiy javobgarlik kabi davlatning majburlov choralarini huquqiy tartibga solish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash muammosini hal etish "yo'l harakati xavfsizligi", "jamoat tartibi", "jamoat xavfsizligi" tushunchalarni talqin qilishga qaratilgan ko'plab ilmiy yondashuvlar bilan bog'liq. Yo'l harakati davlat iqtisodiyotining o'sishi, tarmoqlarining, avtotransport turargohlarining texnik jihozlanganligi huquqiy tartibot holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy omillardan biri sifatida o'zini namoyon etadi. Shu munosabat bilan ushbu munosabatlarni ma'muriy-huquqiy tartibga solish mexanizmlarini tahlil etish zarur.

Yo'l harakati qatnashchilariga nisbatan xavfsizlik tushunchasi ularning konstitusion huquqlari, sog'liqni saqlash va xavfsiz mehnat sharoitlari bilan bog'liq. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, yo'l harakati – bu insonlar, shuningdek,

predmetlari, vositalari va mehnat mahsulotlarining harakatlanishga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojini qondirish usullaridan biridir. Aks holda, haydovchi o'zining transport ehtiyojlarini qondira olmaydi va harakatlanish manfaatlarini amalga oshira olmaydi. Binobarin, xavfsizlik tushunchasining mohiyatida muhim hayotiy manfaatlarining himoyalanganlik holati sifatida faqat o'z hayoti va sog'lig'i saqlashnigina emas, balki harakatlanishda o'zining ehtiyojlarini amalga oshirishni ham nazarda tutadi. Yo'l harakati masshtablarini hisobga olgan xolda ushbu manfaatlar himoyasi ijtimoiy va davlat ahamiyatiga molik masaladir. Ushbu xususiyatlardan foydalanish xavfsizlik darajasi bo'yicha baholash mezonlarini o'zgartirish zarurligini ko'rsatadi. Transport vositasi boshqaruvida nosozliklarga olib keluvchi xolatlarini, shuningdek, transport vositalari, yo'lovchi va manbalarning harakatlanishi uchun texnologik zarur tezlik, moddiy resurslarning

sarflanishini kamaytirish kabi unsurlarni hisobga olish zarur.

Bugungi kunda avtomobil yo'llarida transport vositalarining sonini ortib borishi natijasida avtomobillarni boshqarish ham murakkablashib bormoqda. Magistral yo'llarda avtomobilni boshqarish jarayonida juda ko'plab murakkab vaziyatlarga duch kelinadi. Bunday vaziyatlarni bartaraf etish uchun esa, haydovchidan anchagina mahorat talab etiladi, ammo haydovchida bunday mahorat yetishmasa nima bo'ladi? O'z- o'zidan



Date: 9th February-2025

ravshanki yo'llarda avariya holati vujudga keladi. Bunday holat agar yo'l harakatining boshqa ishtirokchilar tomonidan o'z vaqtida bartaraf etilmasa yo'l transport xodisasi vujudga kelishi muqarrar bo'ladi.

Shuni ta'kidlash o'rinliki, ma'muriy javobgarlikni kuchaytirish orqali yo'llarimizda xavfsiz harakatlanishni ta'minlash qiyin. Buning sababi shundan iboratki, avtomobil yo'lining barcha joylariga kuzatuv kameralarini o'rnatib bo'lmaydi, shuningdek yo'l-patrul xizmati xodimlari ham yo'l harakatining barcha jarayonlarini bir vaqtning o'zida kuzatib turish imkoniga ega emaslar. Shu boisdan yo'l harakati xavfsizligini yuqori darajada ta'minlash uchun yo'l harakatining har bir ishtirokchisining huquqiy madaniyatini oshirish zarur. Buning uchun yo'l harakatining har bir ishtirokchisi yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash, unga bevosita bog'liq ekanligini xis qilishi, yo'l harakati qoidalarini buzishi orqali u harakatning boshqa ishtirokchilariga xavf tug'dirayotganligini his qilishi, yo'llarda harakatlanish jarayoniga ongli yondoshishi lozim.

Yo'l harakati qatnashchilarining huquqiy madaniyatini oshirish uchun keng qamrovli amaliy ishlarni olib borish lozim. Dastavval bu soha uchun mus'ul bo'lgan mutaxassislarining bu sohadagi bilim darajasini yanada oshirish kerak bo'ladi. Bugungi kunda mutaxassislar va haydovchilarni tayyorlash o'quv dasturlarida ham bu masalaga jiddiy e'tibor qaratilmagan. Shu sababdan, yo'l harakati qatnashchilarining huquqiy madaniyatini oshirish uchun dastavval ularning huquqiy savodxonliklarini oshirish talab etiladi. Buning uchun yo'l harakatining har bir ishtirokchisini yoshligidan boshlab huquqiy savodxonligini shakllantirib borish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yo'l harakati qoidalari. O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligi. T., 2001.
2. Muxiddinov N.F., Xamidullaev A.A., Umarov B.U. Yo'l harakati qoidalariga sharhlar va amaliy tavsiyalar. Toshkent 2009y.
3. Qulmuxammedov J.R., Nazarov K.N., Xikmatov R.S., SHaislamov SH.A., Yo'l harakati qoidalari va harakat xavfsizligi (Harakat xavfsizligi asoslari) Toshkent 2008y.
4. J.R.Qulmuxamedov "Avtotransport vositalarida yo'lovchilar tashishni tashkil qilish" Toshkent-2011y
5. B.A.Xo'jayev "Avtomobillarda yuk va passajirlar tashish asoslari" Toshkent 2005 yil.
6. U.Hayitov. Avtomobillarni boshqarish asoslari. T., 2000.

